UDK: 894.375-22 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a72**

ANVAR OBIDJON IJODI ADABIYOTSHUNOSLIK KO‘ZGUSIDA

ANVAR OBIDJON'S WORK IN LITERATURE

ПРОИЗВЕДЕНИЕ АНВАР ОБИДЖОНА В ЛИТЕРАТУРЕ

Muxtoraliyev Bahrom Ilyosjon o‘g‘li[1]

[1]Muxtoraliyev Bahrom Ilyosjon o‘g‘li − Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar murabbiyi,professor Yo‘ldosh Solijonovning 2022-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan Toshkentda chop etilgan “Anvar Obidjon poetik olami” monografiyasi haqida fikr yuritilgan. Monografiyada she’riyat, nars, dramaturgiya, hajviyot,publisistikaning qator janrlarida samarali ijod qilgan, bolalar va kattalar adabiyotining o‘ziga xos yangilanishiga munosib hissa qo‘shgan Anvar Obidjon ijodining uslubiy o‘ziga xosliklari tahlil etilgan. Muallif serqirra iste’dod sohibi ijodini yaxlit tarzda o‘rgangani holda o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan ulkan hissasini uslubi va badiiy mahorati qirralarini, poetik olamini turli rakuslarda yoritishga erishgan.

Monografiyada “Tanlangan she’rlar” 1, 2 hamda “Saylanma” kitoblari (ular „Sharq“ nashriyotida 2006-yilda, keyingisi “AKADEMNASHR”da 2017-yilda chop etilgan)da jamlangan asarlari tahlili orqali Anvar Obidjon ijodining XX – XXI asrlar O‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматривается монография «Поэтический мир Анвара Обиджона», изданная в Ташкенте в 2022 году издательством «Янги аср авлоди» тренера молодежи Республики Узбекистан, профессора Юлдаша Солиджонова. В монографии анализируются методологические особенности творчества Анвара Абиджана, эффективно работавшего в ряде жанров поэзии, поэзии, драмы, комедии, публицистики, внесшего достойный вклад в обновление детской и взрослой литературы. Автор внес большой вклад в узбекскую литературу, изучив произведения многогранного таланта, и смог осветить аспекты его стиля и художественного мастерства, а также его поэтический мир в разных ракурсах.

Через анализ собранных в монографии произведений в книгах «Избранные стихотворения» 1, 2 и «Подборка» (они были изданы «Шарк» в 2006 г., последующие в «АКАДЕМНАШР» в 2017 г.) освещается вклад в развитие Узбекской литературы.

Abstract

The article discusses the monograph "Anvar Obidjon poetic world" published in Tashkent in 2022 by the publishing house "Yangi asr avlodi" of the Youth Coach of the Republic of Uzbekistan, Professor Yuldash Solijonov. The monograph analyzes the methodological features of the work of Anvar Abidjan, who worked effectively in a number of genres of poetry, poetry, drama, comedy, journalism, and made a worthy contribution to the renewal of children's and adult literature. The author has made a great contribution to the Uzbek literature by studying the works of the multifaceted talent, and has been able to cover the aspects of his style and artistic skills, as well as his poetic world in different perspectives.

Through the analysis of the works collected in the monograph in the books "Selected Poems" 1, 2 and "Selection" (they were published by "Sharq" in 2006, the next in "AKADEMNASHR" in 2017) the contribution to the development of Uzbek literature are enlightened.

***Kalit so‘zlar**: monografiya, she’riyat, nasr, badiy mahorat, badiiy uslub, iste’dod, publitsistika, dramaturgiya, yangi janrlar.*

***Ключевые слова:** монография, поэзия, проза, художественное мастерство, художественный стиль, талант, публицистика, фармакология, новые жанры.*

***Key words:** monograph, poetry, prose, artistic skill, artistic style, talent, publicistics, pharmacology, new genres.*

KIRISH. XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari o‘zbek adabiyoti taraqqiyotini Anvar Obidjonning turli tur va janrlarga mansub asarlarisiz tasavvur etish mumikin emas. Ma’lumki, shu davrgacha yaratilgan ilmiy tadqiqotlarda yozuvchining adabiyotimizni mazmun va janr, obrazlar jihatidan yangilash borasidagi mahorati, uslubidagi o‘ziga xosliklar yetarlicha yoritilmagan. Professor Y.Solijonov mazkur monografiyada yozuvchi asarlaridagi ana shu jihatlarga asosiy diqqatini qaratgan. Anvar Obidjon asarlarining mazmun-mohiyati hamda mahorat qirralarini yoritishga muvaffaq bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Y. Solijonovning “Anvar Obidjon poetik olami” monografiyasi betakror iste’dod sohibining bolalar va kattalar adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi turli janrlardagi asarlari misolida keng tahlil etilgan.

A.Sabirdinovning “O‘tkir Hoshimovning “Yanga” hikoyasida milliy xarakterlar talqini” maqolasida betakror iste’dod sohibining qahramon yaratishdagi mahorati va uslubiga xos jihatlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, mazkur muallifning “Asqad Muxtorning badiiy-estetik qarashlari (“Tundaliklar” asari misolida)” maqolasida o‘zbek adabiyotida sochma she’r, prozaik she’r, mansura nomlari bilan atalgan janrni ham esga soladigan asarlari misolida yozuvchining badiiy-estetik mahorati masalalari tahlil etilgan; shuningdek, “Naim Karimov hikoyalarida qatag‘on davr voqeligi talqini” maqolasida “Bu ajib dunyo” (Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016) kitobiga jamlangan “G‘ofurona safar”, “Amin va Amina”, “Taraddud”, “Dostonga arziydigan qo‘shiq”, “Muborak imzo”, “Ikkinchi uchrashuv”, “Hamoyil”, “Qasamyod” hikoyalari tahlili orqali muallifning mahorati yoritib berilgan.

Maqolada avtobiografik, qiyosiy, ontologik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

XV asrda yashab,ijod etgan xitoylik faylasuf Van Shaujen Yuyao “Komil inson har bir odamning komil bo‘lishi uchun qayg‘uradi” degan edi. Bu fikrni bevosita ijod ahliga ham to‘la tadbiq etish mumkin. Betakror va serqirra iste’dod sohibi Anvar Obidjon hayoti va ijodini ana shu ezgu ishga bag‘ishladi, yuksak saviyadagi asarlari bilan o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi.

XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotini Anvar Obidjon ijodisiz tasavvur etish mumkin emas. Holbuki, she’riyat, nars,dramaturgiya,hajviyot,publitistikaning qator janrlaridan samarali ijod qilgan, bolalar va kattalar adabiyotining o‘ziga xos yangilanishiga hissa qo‘shgan ijodkor asarlari hali adabiyotshunosligimizda to‘la holda keng tadqiq etilgani yo‘q. U kelgusida o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar Murabbiyi, professor Yo‘ldosh Solijonovning 2022-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan chop etilgan “Anvar Obidjon poetik olami” monografiyasi muayyan darajada bu bo‘shliqni to‘ldiradi. Shu paytgacha Anvar Obidjon ijodi bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlar,kitoblar va maqolalarning asosiy qismida yozuvchining adabiyotimizni yangi mavzu,yangi janrlar hamda yangi qahramonlar bilan boyitganligi yetarlicha yoritilgan emas edi. Monografiyada muallif betakror iste’dod sohibi ijodidagi ana shu jihatylarga asosiy diqqatni qaratgani holda tahlil etgan. Anvar Obidjon ijodini yaxlit tarzda o‘rgangani holda uning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan ulkan hissasini, uslubi va badiiy mahorati qirralarini, poetik olamini turli rakuslarda yoritishga erishgan.

Monografiya muqaddima,xulosa,foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashqari to‘rt bob, (o‘n ikki fasl) dan iborat. Shuningdek, unda muallifning “Qalamdan nari turmog‘im mahol…” nomi ostidagi yozuvchi bilan suhbati ham o‘rin olgan. Kitobda Anvar Obidjonning katta hayot va ijod yo‘li izchil yoritilgan.

Kitobning “Yillar,yo‘llar,yo‘nalishlar” deb nomlangan birinchi bobi “Hayot yo‘li”, “Ijod yo‘li”, “Yo‘nalishlar” deb nomlangan fasllardan iborat. Ularda yozuvchining bobosi Bahromxon eshonning savob ish qilish maqsadida kelin tanlash ixtiyorini o‘ziga bergan otasidan mahallasidagi “Do‘smat tog‘aning sovchi kelmasdan uzoq vaqt o‘tirib qolgan Sarvinso degan bitta ko‘zi ojiz qiziga sovchi yuborishni so‘ragan”i, undan to‘rt farzandning to‘ng‘ichi Obidjon tug‘ilgani, Anvarjon esa uning birinchi o‘g‘li ekani bayon etiladi. Kitobda maktab ta’limi, harbiy xizmat, turli sohalardagi faoliyat, oliy ta’lim, nihoyat Toshkent hayoti bilan bog‘liq voqealar Anvar Obidjon ijodi takomilida nechog‘lik muhim o‘rin tutganligi izchil yoritilgan.

Monografiyaning ikkinchi bobi “Bolalar badiiyati bog‘ining bog‘boni” deb atalgan. “Ushbu bob bog‘ni boqsang – bog‘ bolar…”, “Bog‘ning tarovati va mazali mevalari”, “Yangi mavzu, yangi muammo, yangi qahramon” kabi fasllarni o‘z ichiga oladi. Muallif o‘zbek bolalar adabiyotining turli bosqichlarini tahlil etar ekan, bu borada Anvar Obidjon ijodining o‘rni va ahamiyatini keng tahlil etadi. Muallif ta’kidlaganidek, “Bolalar adabiyoti o‘tgan asrning saksoninchi yillardan boshlab yangi bosqichga ko‘tarila boshladi. Bu yangilanishda Anvar Obidjonning alohida xizmati bor… Eng muhimi, u bolalar adabiyoti bog‘ini ko‘rinishidan tortib yangi navdaga mevali nihollarning ko‘paytirishgacha, sifati yaxshilanishgacha, ran-barang hosilini yag‘ishtirib, xaridorlarga yetkazishgacha xizmatini ayamadi. Bu bo‘g‘ni yana-da ko‘paytirishni orzu qildi, iste’dodli ijodkorlarni bajonidil yoniga chaqirdi, ularga bog‘bonlikning sir-asarorlarini erinmay o‘rgatdi”.

Monografiyada Anvar Obidjonning “Juda qiziq voqea” kitobiga kirgan qator she’rlari misolida shoirning o‘zbek bolalar she’riyatiga qo‘shgan hissasi, “Oltin yurakli Avtobola”, “Dahshatli Meshpolvon”, “Alamazon va uning piyodlari”, “Kezargon Boychechak”, “Meshpolvonning janglari”, “Olovjon va uning do‘stlari”, “0099-raqamli yolg‘onchi” kitoblari tahlili orqali o‘zbek bolalar nasri taraqqiyotidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Muallif shunday xulosaga keladi: “Umuman, Anvar Obidjonning bolalarga atalgan qaysi qissasi yoki hikoyasini o‘qimang, uning vujudiga milliy g‘urur, erk va ozodlikka tashnalik tuyg‘usi singdirib yuborilganligini anglaysiz. Bu jihatdan “0099-raqamli yolg‘onchi”, “Olovjon va uning do‘stlari”, “Kezargon Boychechak” kabi qissalari ham ibratlidir”. “0099-raqamli yolg‘onchi” qissasidagi Bo‘taloq, Olapar, Olovjonlar iymon-e’tiqodiligi, irodaliligi maqsadi yo‘lida qat’iy harakat qilishi bilan o‘quvchi ommasiga ibrat bo‘la oladi. Binobarin, Vatan tuyg‘usini chuqur his qilish, uning hamisha ozod, obod va mustaqil ko‘rish istagi erk va ozodlik uchun kurashish hissi yosh avlod qalbiga singdirilar ekan, ijodkorning eng katta muvaffaqiyati mana shunda namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan Anvar Obidjonni namuna qilib ko‘rsatsak arziydi.

Monografiyaning “lirikaning lazzati, latofati, labirantlari” deb nomlangan uchinchi bobi “Lazzatli lahzalar”, “Latofatli lavhalar”, “Labirantlar laboratoriyasida” kabi fasllarni o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, Anvar Obidjon merosining katta qismini kattalar uchun yozilgan lirik she’rlar tashkil etadi. Ular shoirning “Tanlangan she’rlar 1,2” hamda “Saylanma” kitoblari (ularning dastlabki ikkitasi “Sharq” nashriyotida 2006,2014-yillarda, keyingisi 2017-yilda “Akademnashr”da chop etilgan) ga jamlangan. Monografiyada yuqoridagi Anvar Obidjon kitoblariga kirgan millatni, Vatanni ulug‘lovchi she’rlari tahlil etiladi. Shuningdek, shoirning Farg‘onani math etuvchi she’rlari tahlili orqali shoirning go‘zal yurtimizning betakror manzaralarini she’riy satrlarga muhrlashdagi mahorati misollar asosida ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, Anvar Obidjonning bir satrli “Ignabarglar”i, uch satrli “Uchchanoqlar”i keng tahlil etilgan. Usta Gulmat g‘azallariga xos jihatlarni muallif “Gulmat Shoshiy” asarlari hazrat Navoiyning faylasufona o‘ychanligi, Bobur ijodiga xos ixchamligi, devona Mashrabning isyonkorona fikri, Muqimiy singari ochiqso‘zligi, Furqat g‘azallaridagi dartkashlik kabi fazilatlar bilan to‘ydirilgan” deya izohlaydi.

Lirik merosidan zarracha kam bo‘lmagan Anvar Obidjon nasriy asarlari tahlili kitobning “Nasrning nafosati, nazokati, nash’u namolari” nomli to‘rtinchi bobi asosini tashkil etadi. Mazkur bob “Hajviyalar, Hikoyalar, Hangomalarning haqchilligi”, “Po‘rtanali publisistika”, “Nasrning nafosati” nomli fasllardan iborat.

Abdulla Qodiriyning hajviy obraz yaratish mahoratidan o‘rgangani va ta’sirlangani holda Anvar Obidjon Kalvak Mahzum tipidagi Sotti satang, Aspan attor, Mirzaqand piyon kabi obrazlarni yaratgani kabi “Kalvak mahzumdan maktublar”ida namoyon bo‘lgani monografiyada yoritib berilgan. Anvar Obidjonning hajviy asarlaridagi har bir personaj o‘zining individual nutq manerasiga egaligi va biri ikkinchisni hech ham takrorlamasligi misollar bilan dalillanadi. Yozuvchining tesha tegmagan so‘z va iboralar, ifoda va badiiy detallar yaratish bilan qahramon ichki dunyosi talqinidagi betakrorlikni yuzaga chiqarish mahorati keng yoritilgan. Monografiyada “Ajinasi bor yo‘llar” nomli avtobiografik asari tahlili ham keng o‘rin olgan. Muallif A.Saidov, Q.Yo‘ldosh, Sh.Ahmedovalar bilan bahsga kirishib asarning janrini qissa deb belgilaydi. Asarni Anvar Obidjon uslubiga hos shavqatsiz realizmning eng yorqin namunasi deb baholaydi. Kitobda yozuvchining tilimizning boy imkoniyatlaridan samarali foydalangani holda yangi so‘zlar yarata olish iqtidori ham keng yoritib berilgan. Muallif to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo‘llar” asarini o‘zbek xalqining XX asr ikkinchi yarimidagi ayanchli hayoti aks ettirgan badiiy ko‘zgu deb atash mumkin. Unda ifodalangan har bir shaxs o‘zining tugal taqdiri bilan zamon qiyofasini yoritishga yo‘naltirilgan.

Xullas, Y.Solijonovning “Anvar Obidjon poetik olami” kitobi Anvar obidshunoslik deb atalmish binoning dastlabki poydevoridir. Ushbu poydevordan muazzam binolarni barpo etish esa keyingi tadqiqotchilarning vazifasidir.

XULOSA. Monografiya Anvar obidshunoslik taraqqiyotida o‘ziga xos poydevor vazifasini bajardi; u kelgusida Anvar Obidjon ijodi bo‘yicha yaratiladigan tadqiqotlar uchun o‘ziga xos ta’sir manbai vazifasini o‘taydi; kitobda Anvar Obidjonning barcha tur va janrlardagi asarlari qamrab olingan va keng tadqiqqa tortilgan; Anvar Obidjonning o‘zbek she’riyatini janr jihatdan boyitishdagi xizmatlari keng yoritilgan; xullas, ushbu monografiya betakror iste’dod sohibi ijodini yaxlit o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot sifatida adabiyotshunoslikda muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. Solijonov Y. Anvar Obidjon Poetik olami. Monografiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 216 b.(Solijonov Y. Anvar Obidjon Poetic world. Monograph)

2. Sabirdinov A. Inerpretation of characters in Utkir Hoshimov's story "Yanga". International journal of multicultural and multireligious understanding. Vol. 8, Issue 5. May 21, 2021. ISSN 2364-5369. P. 196-200.

3. Sabirdinov A. Literature-aesthetic of the Askad Mukhtar (on the exemple of "Tundaliklar") EPRA Interpretation Journal of MULTIDISCIPLINARY RESERCH (IJMR). Monthly, Peer Reviewed (Refered) & Indexed Interpretation Journal. Volume – 6, Issue – 11, November 2020. SJIF Impact Factor: 7.032. ISI I.F Value: 1.188. ISSN (Online): 2455-3662. DOI: 10.36713/epra2013

4. Sabirdinov A. International of the banned period in the stories of Naim Karimov

Asian jornal of Multidimensional Resach (AJMR) // Vol.10.Issue 11, November 2021. Imdact Factor: sjif 2021=7.699. ISSN 2278-4853. P. 84-91.